



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-avgust*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 65-223-75-63*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 14 255 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 66 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 14 189 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 12 011,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 108,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 111,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 131,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 10 899,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 502,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 116,0 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	12 011,4	108,8
Buxoro shahri	4 126,5	113,1
Kogon shahri	456,7	105,8
<i>tumanlar:</i>		
Olot	313,4	107,7
Buxoro	704,1	112,5
Vobkent	425,0	106,7
G'ijduvon	2 217,7	106,1
Kogon	430,0	105,1
Qorako'l	926,9	106,3
Qorovulbozor	269,2	107,3
Peshku	371,2	107,7
Romitan	636,8	105,8
Jondor	674,0	105,9
Shofirkon	459,9	105,8

2024- yilning yanvar-avgust oylarida 2023- yilning yanvar-avgust oylarga nisbatan viloyatining Buxoro shahri (113,1 %), Buxoro (112,5 %), Olot (107,7 %) va Peshku (107,7 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar- avgust)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,2 % ni tashkil qildi.

2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-avgust oylarida o'sish sur'ati **108,8 %** ni tashkil qildi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI VA ULUSHI

4

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Buxoro shahri 34,4 % bilan 4 126,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Qorovulbozor tumani 2,2 % bilan 269,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-avgust oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 10 899,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 7,0 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,7 % ni tashkil etdi.

106,7	Buxoro sh.
107,0	Vobkent
107,4	Qorovulbozor
107,9	Olot
111,0	Kogon
112,4	Buxoro


Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 31,3 % ga ko'paydi va 1 111,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,3 % ulushiga to'g'ri keldi.



89,1	Qorako'l
92,1	G'ijduvon
92,4	Kogon
98,3	Olot
112,6	Buxoro
117,2	Peshku
155,3	Buxoro sh.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Buxoro (99,5 %), Qorovulbozor (99,7 %) va Romitan (99,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 9,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Buxoro shahri (18,1 %), Peshku (40,3 %) va Kogon (27,9 %) tumanlarida kuzatildi.

9,3 %



90,7 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

Olot

2 993,8

Buxoro

3 931,1

Buxoro sh.

13 941,0

Vobkent

2 848,5

Kogon sh.

7 036,7

G'ijduvon

6 851,1

Kogon

5 064,5

Qorako'l

5 379,7

Qorovulbozor

13 460,1

Peshku

2 823,0

Romitan

4 197,8

Jondor


3 621,7

Shofirkon

2 461,8

2024- yilning yanvar-avgust oylar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 5 856,7 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 107,0 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (13 941,0 ming. so'm), Qorovulbozor (13 460,1 ming. so'm) va G'ijduvon (6 851,1 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-avgust), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rnlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	748,7	117,6
Buxoro shahri	217,1	149,9
Kogon shahri	10,5	144,7
Olot	20,6	164,9
Buxoro	29,5	150,6
Vobkent	76,2	126,7
G'ijduvon	212,8	96,6
Kogon	3,4	119,3
Qorako'l	109,2	91,9
Qorovulbozor	5,1	110,8
Peshku	20,5	155,7
Romitan	17,9	118,6
Jondor	13,9	188,8
Shofirkon	12,0	117,2


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar- avgust)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mldr. so'm (2024- yil yanvar- avgust)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 502,2 mldr. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 116,0 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 748,7 mldr. so'mni (117,6 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 753,5 mldr so'mni tashkil etdi (114,4 %).

2024-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 748,7 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (344,1 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi



2024- yilning yanvar-avgust oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 753,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosи 648,2 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 99,4 mlrd. so'mni, otlar – 3,9 mlrd. so'mni, parrandalar – 2,0 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosи hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 408,3 mlrd. so'm  54,2 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 142,5 mlrd. so'm  18,9 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 97,4 mlrd. so'm  12,9 %
Qo'yilar 74,4 mlrd. so'm  9,9 %	Otlar 3,9 mlrd. so'm  0,5 %	Echkilar 25,0 mlrd. so'm  3,3 %
Kurka, o'rdak, g'oz 1,2 mlrd. so'm  0,2 %	Tovuqlar 0,8 mlrd. so'm  0,1 %	Quyonlar 0 mlrd. so'm  0,0 %
Qushlar 0 mlrd. so'm  0,0%		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- sentabr korxonalari soni 1 850 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 844 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	506,5	107,9
Buxoro shahri	253,0	100,7
Kogon shahri	16,8	104,1
<i>tumanlar:</i>		
Olot	10,6	169,1
Buxoro	23,0	115,8
Vobkent	26,1	106,1
G'ijduvon	51,0	133,4
Kogon	17,5	120,1
Qorako'l	17,4	110,3
Qorovulbozor	10,3	108,1
Peshku	27,9	193,9
Romitan	31,1	81,7
Jondor	10,7	105,1
Shofirkon	11,1	103,8

2024- yilning yanvar-avgust oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 506,5 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	2 989,0	100,0
Buxoro shahri	1 874,2	62,7
Kogon shahri	6,1	0,2
<i>tumanlar:</i>		
Olot	16,0	0,5
Buxoro	32,8	1,1
Vobkent	351,3	11,7
G'ijduvon	346,2	11,6
Kogon	13,5	0,5
Qorako'l	19,7	0,7
Qorovulbozor	2,5	0,1
Peshku	12,6	0,4
Romitan	9,1	0,3
Jondor	292,2	9,8
Shofirkon	12,8	0,4


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (1 874,2 mlrd. so'm), Vobkent (351,3 mlrd. so'm) va G'ijduvon (346,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-avgust oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 2 989,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,7 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 848,9 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 93,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 1 140,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 141,1 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 8 448,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga o‘sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 5 988,4 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,5 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 70,9 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 566 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 34 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 532 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Qorako'l (2,7 m.), Peshku (137,9 %) va Vobkent tumanlarida (132,6 %) kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	8 448,4	104,5
Buxoro shahri	3 200,2	105,6
Kogon shahri	184,6	69,8
<i>tumanlar:</i>		
Olot	25,4	123,4
Buxoro	318,0	119,6
Vobkent	1 212,6	129,8
G'ijduvon	625,0	92,9
Kogon	633,8	100,9
Qorako'l	138,0	123,0
Qorovulbozor	585,2	101,9
Peshku	773,5	127,8
Romitan	373,0	68,4
Jondor	281,1	83,2
Shofirkon	98,0	107,4